

**TURKISTON MINTAQASIDA SOVET HOKIMIYATINING IQTISODIY
SIYOSATI (1917 – 1924-YILLAR).***Jo`rayev Jaloliddin Sirojiddinovich**Oriental Universiteti Tarix yo`nalishi 1-kurs magistranti**Telefon raqam: +998 97 089-06-77***ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В ТУРЕЦКОЙ
ОБЛАСТИ (1917-1924 гг.).***Джураев Джалалиддин Сирожиддинович**Магистрант 1 курса исторического факультета Восточного университета**Телефон: +998 97 089-06-77***THE ECONOMIC POLICY OF THE SOVIET AUTHORITY IN
TURKESTAN REGION (1917-1924).***Jurayev Jalaliddin Sirojiddinovich**Oriental University 1st year graduate in history**Phone number: +998 97 089-06-77*

Annotatsiya. Turkistonda 1917- yil oxirlaridan e'tiboran ishlab chiqarish ustidan ishchi nazorati joriy qilina boshlandi. 1918 yil mart oyiga kelib sanoat korxonalarining taxminan 10 foizi ishchi nazorati bilan qamrab olindi. 1918-yildayoq Toshkentda "Dehqon" ittifoqi vujudga kelgan edi. Shu orqali Toshkent va shahar atrofidagi tumanlar dehqonlari hamda savdo doiralarining turli qatlamlari, yangi hokimiyatning muayyan keskin choralariga qarshilik ko'rsatishiga hamda o'z mulklarini saqlab qolishga harakat qilgan edilar. Tashkilot dehqonlar ommasining ozchilik qismini qamrab olgan bo'lib, mahalliy xarakterga ega bo`lgan. 1919- yilda Turkiston respublika va Yer ishlari Xalq Komissarligining ko'magi bilan kambag'allar qo'mitalari tuzildi. "Qo'shchi" uyushmasi kambag'allarning qo'mitalari va ittifoqlari o'rnida vujudga kelgan edi. Keyinchalik 1921- yilning mart oyida NEP islohoti o'tkazildi va buning natijasida bir qator muammolar bartaraf etildi. XX asrning 20-yillarida Turkistondagi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahvol mana shunday ko`rinishda edi.

Kalit so`zlar. harbiy kommunizm, dehqon xo`jaligi, qo'shchi uyushmasi, yangi iqtisodiy siyosat (nep), industrilashtirish, monopoliya.

Абстрактный. В Туркестане с конца 1917 года стал вводиться рабочий контроль над производством. К марта 1918 года около 10 процентов

промышленных предприятий были охвачены рабочим контролем. Еще в 1918 году в Ташкенте был создан «Крестьянский» союз. Посредством этого крестьяне Ташкента и пригородных районов, а также различные слои торгового круга пытались противостоять некоторым решительным мерам новой власти и сохранить свое имущество. Организация охватывала меньшинство крестьянских масс и носила местный характер. В 1919 году при поддержке Туркестанской Республики и Наркомата земельных дел были созданы комитеты бедноты. Ассоциация «Коши» была создана на месте комитетов и союзов бедноты. Позже, в марте 1921 года, была проведена реформа НЭПа, в результате которой был устранен ряд проблем. В 20-е годы 20 века экономическая и социально-политическая ситуация в Туркестане выглядела так.

Ключевые слова. военный коммунизм, крестьянское хозяйство, кооператив, новая экономическая политика (НЭП), индустриализация, монополия.

Abstract. In Turkestan, from the end of 1917, worker control over production began to be introduced. By March 1918, approximately 10 percent of industrial enterprises were covered by workers' control. As early as 1918, the "Peasant" union was established in Tashkent. Through this, the farmers of Tashkent and the districts around the city and different strata of the trade circle tried to resist certain drastic measures of the new government and to save their property. The organization covered a minority of the peasant masses and had a local character. In 1919, with the support of the Republic of Turkestan and the People's Commissariat of Land Affairs, committees of the poor were formed. "Koshchi" association was created in the place of committees and unions of the poor. Later, in March 1921, the NEP reform was carried out, and as a result, a number of problems were eliminated. In the 20s of the 20th century, the economic and social-political situation in Turkestan looked like this.

Key words. military communism, peasant economy, cooperative, new economic policy (NEP), industrialization, monopoly.

Kirish. XX asr 20- yillari boshlariga kelganda o'lka hayoti va Turkistonda yashayotgan yerli aholining maishiy turmush tarzi juda nochor ahvolda edi. Sanoat izdan chiqqan, transport va aloqa vositalari ishlamayotgan, ekin maydonlari payxon bo'lib ketgandi. Eng yomoni, o'lkada ochlik, qashshoqlik, ommaviy ishsizlik hukm surardi. Buning ustiga, Sovetlar hokimiyati tomonidan ishlab chiqilib hayotga zo'rlik bilan joriy etilgan oziq-ovqat razvyorstkasi va u bilan uyg'unlashgan "harbiy kommunizm" siyosati o'lka hayotini yanada mushkul ahvolga solib qo'ygan edi. Yer-suv islohotining xarakteri 1920 yil sentabrda bo'lib o'tgan Turkiston Sovetlari IX qurultoyining qarorlarida aks etdi. Ushbu dasturning asosida mehnat bilan shug'ullanmaydigan boy-quloq xo'jaliklarini tugatish va ko'chmanchilarni o'troq

hayotga o'tkazish, yersiz va kam yerli dehqonlarni yer bilan ta'minlash va eng asosiysi rus kelgindilarining ortiqcha yerlarini musodara qilish orqali Rossiya imperiyasi mustamlakachilik sarqitlarini yengish yotar edi. Lekin vaqt o'tishi bilan ko'chirib keltirilgan ruslardan yerlarni musodara qilish bilan bir qatorda vaqf yerlari tortib olindi, boylar, mannoplar, savdogarlar, diniy xizmatchilar va qishloq hamda ovullarning "mehnat bilan shug'ullanmaydigan yuqori tabaqalari" degan boshqa vakillarining yerlari kamaytirildi.

Yer va suvni taqsimlash jarayoni bir tomondan yersiz va kam yerli dehqonlarni yer bilan ta'minlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan qishloqdagi siyosiy vaziyatni o'ta keskinlashtirib, sinfiy ziddiyatlarni kuchaytirdi. Shuningdek, islohot davomida Yettisuv va Jalolobod tumanlarining ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholisini o'troq hayotga o'tkazish siyosati salbiy oqibatlarga olib keldi. Zero, ko'chmanchilikdan o'troqchilikka o'tish, nafaqat xo'jalik faoliyat shakllarini o'zgartiribgina qolmay, balki asrlar davomida shakllanib kelgan ushbu ijtimoiy guruhning turmush tarzi hamda kasb-hunarining tamomila o'zgartirib yuborishi muqarrar edi. Islohotni o'tkazishning inqilobiy-zo'ravonlik usullari Turkiston qishloqlarida ijtimoiy va millatlararo tanglikni vujudga keltirdi. Yer-suv islohoti 1922- yil kuzida o'z poyoniga yetdi. Uni amalgalashunishga mahalliy dehqonlarini birlashtirgan "Qo'shchi" uyushmalari tashkil etila boshladi. Lekin shuni ta'kidlash joizki, "Qo'shchi" Turkiston dehqonlari uyushgan birinchi tashkilot emas edi. Yangi iqtisodiy siyosat. Vaziyat Sovetlar yo'lboschchilari oldiga ahvolni o'nglash, tang vaziyatdan chiqish va xo'jalik siyosatining yangi vazifalarini belgilashni ko'ndalang qilib qo'ydi. Bu vazifalar 1921- yil mart oyida bo'lib o'tgan RKP (b) ning X syezdi belgilab bergen yangi iqtisodiy siyosat (NEP) da o'z ifodasini topdi. Bu siyosatning muhim bo'g'lnlari oziq-ovqat razvyorstkasini oziq-ovqat solig'i bilan almashtirish, savdo-sotiqni erkinlashtirish, sanoatda, mayda hunarmandchilik va boshqa sohalarda xususiy tadbirkorlikka ruxsat berish, bozorni tartibga solish, yollanma mehnat chekhanishini bekor qilishdan iborat bo'ldi. Eng muhimi, bu siyosat shahar bilan qishloq O'rtasidagi o'zaro munosabatlarni izga solishga, yangi hokimiyatning tayanch negizi hisoblangan ishchilar bilan dehqonlar ittifoqini, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilardi. Yangi iqtisodiy siyosatning bosh maqsadlaridan biri bu dehqon xo'jaligini oyoqqa turg'izish, uni rivojlantirish edi. Yangi iqtisodiy siyosat Turkiston uchun bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Birinchidan, Turkiston qoloq chekka, asosan qishloq xo'jaligi o'lkasi edi. Ikkinchidan, o'lkada milliy ishchilar sinfini shakllantirish zarur edi. Uchinchidan, Turkiston ko'p millatli o'lka bo'lib, yangi iqtisodiy siyosatga o'tishda yerli xalqlarning qadriyatlarini, an'analari, urf-odatlari xususiyatlarini hisobga olish kerak bo'lardi. 1921- yil aprelda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi oziq-ovqat, yem-xashak va xomashyo razvyorstkasini mahsulot solig'i bilan almashtirish to'g'risida qaror qabul qildi. Unda

1921-1922- yillar uchun soliq miqdori belgilandi. Turkiston mehnatkashlaridan olinadigan soliq markaziy rayonlardan farqli o'laroq yil oxirida yig'ib olingan hosil miqdoriga qarab emas, balki ekilgan yerning har desyatini, shuningdek, qora mol va mayda mollar hisobidan olinadigan bo'ldi. Bu esa Turkiston dehqonining kamsitilishini bildirardi.

Bundan tashqari, Sovet hukumati o'lkada birinchi navbatda o'zi uchun zarur bo'lgan tarmoqlarni, chunonchi, paxta, qand lavlagi, tamaki va boshqa texnik ekinlarni rivojlantirishga alohida e'tiborni qaratdi. Yordam ko'rsatish bahonasida 300.000 dan ortiq ishchi va dehqon oilalari Rossiya markaziy rayonlaridan Turkistonga keltirilib joylashtirildi. Yangi iqtisodiy siyosat asosida sanoatni xo'jalik hisobiga o'tkazish jarayoni amalga oshirib borildi. Bu esa sanoat korxonalari ishlab chiqarishining biroz bo'lsa-da, jonlanishiga olib keldi. Mayda va O'rta sanoat korxonalari, yirik kooperativ tashkilotlari va ularning birlash- malari tadbirkorlarga ijara berildi. O'lkada yangi sanoat korxonalari, temir yo'llar qurildi. Xilkovo sement zavodi, Farg'ona pillachilik fabrikasi, Toshkent guruch zavodi, Qizilqiya, Xilkovo temir yo'l shahobchalari shular jumlasiga kiradi. O'lkada, ayniqsa, paxtachilik va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan paxta tozalash korxonalari tez sur'atda o'sdi. Davlat iqtisodiyotni boshqarish tizimini yangi sharoitlarga moslashtirish choralarini ko'rди. 1921-yil mart oyida Turkiston Iqtisodiy Kengashi tuzilib, mahalliy iqtisodiy kengashlar uning tasarrufiga o'tkazildi. Shuningdek, Turkiston Iqtisodiy Kengashi tarkibida Davlat Planlashtirish Komissiyasi tuzildi. Pul xo'jaligi jiddiy amaliy ifoda kasb etdi. 1921-yilda Turkiston bonlari muomaladan chiqarilib, Rossiya qog'oz pullari muomalaga kiritildi, lekin ular tez orada qadrsizlanib qoldi. 1922-yilda boshlangan pul islohoti, ya'ni pul almashtirish uch yil davom etdi. Oltin hisobidagi chervonlar, kumush va mis tangalar chiqarildi. Markaziy banklarning bo'limlari, Turkistonning o'z banklari tashkil etilib, faoliyat ko'rsatdi. Davlat daromadlari va xarajatlari hisobga olinib, budget tuzishga kirishildi. Transport, sanoat tiklanib bordi. Elektrstansiyalar, tramvay ishga tushirildi, korxonalar, ijara olingan obyektlar aholi talablari uchun mahsulot chiqarib, xizmat qila boshladilar. Sanoat va hunarmandchilik sohalariga nisbatan iqtisodiy siyosatdagi liberallashuvning mazmun-mohiyatini, ma'muriy-siyosiy tazyiqni bo'shashtirish, moddiy manfaatdorlik uchun imkoniyatlar yaratish, xo'jalik hisobi tamoyillaridan keng foydalanish tashkil qilindi. Sanoat va hunarmandchilik sohalariga nisbatan iqtisodiy siyosatdagi liberallashuvning mazmun-mohiyatini, ma'muriy-siyosiy tazyiqni bo'shashtirish, moddiy manfaatdorlik uchun imkoniyatlar yaratish, xo'jalik hisobi tamoyillaridan keng foydalanish tashkil qilindi.

Xulosa. Turkistonda bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgach, o'lka iqtisodiyoti butunlay izdan chiqdi. Respublikadagi bozorlarga keskin zarba berildi. Shu davrdan boshlab davlat barcha shakldagi xususiy mulk davlat mulkiga aylantirila boshlandi. Bolsheviklar tomonidan Turkistonda ham "harbiy kommunizm" siyosati joriy qilindi.

Markaz Turkistonga yuborgan vakolatli tashkilot va komissiyalar orqali bolsheviklar davlat boshqaruvini o'z qo'llarida saqlab qolishga muvaffaq bo'lildilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Р.Абдуллаев, М.Рахимов (2019). Узбекистон тарихи. 1-жилд. Ташкент, “О'zbekiston” nashriyoti.
2. B.J. Eshov, A.A. Adilov (2005). O'zbekiston tarixi. Toshkent.
3. Р.Х. Муртазаева (2003). Узбекистон тарихи. Тошкент. “Янги аср авлоди” нашриёти.
4. D.A. Alimova, R.H. Karimov (2004). O'zbekiston tarixi. Toshkent, “Sharq” nashriyoti.
5. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova (2006). O'zbekiston tarixi. Toshkent, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti.
6. B. T. Ataxanov, M. B. Isabayev - FUQAROLIK JAMIYATI FANIDAN ATAMALAR LUG'ATI.

Web saytlari.

1. [https:// medium.com](https://medium.com)
2. [https:// muhaz.org](https://muhaz.org)
3. [https:// wikepediya.uz](https://wikepediya.uz)
4. studfile.uz